

YOSHLAR OVOZI

BIZ - KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy gazeta

64 (16517)
2022-yil, 14-sentabr
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqsa boshlagan

Kun mavzusi
3-bet

10 ming talabaga
transport yetarlimi?

Yoshlar yetakchisi
4-bet

Ishning ko'zini
biladigan yetakchi

Sening tengdoshing
6-bet

Sarvinoz 10 ta
til o'rgandi




5 TASHABBUS OLIMPIADASI BOSHLANDI: HAYAJONLI LAHZALAR VA G'ALABA ZAVQI OLDINDA

Yangi mavsumda musobaqa tashkilotchi va mas'ullari ham yoshlarga
o'rnak bo'lish istagida o'yinlarda ishtirok etmoqda.

batafsil
5-betda

SHHT: TALQINLAR TURLICHA, UMUMIY MAQSAD MUSHTARAK



Qadimdan turli millat vakillari uchun tarixiy muloqot maydoni, madaniyatlar ko'prigi va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash maskani sifatida nom qozongan Samarqand shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari kengashining navbatdagi uchrashuv bo'lib o'tadi.

O'zbekiston raisligida ShHT doirasida qanday vazifalarga erishildi?

Tashkilotning maqsad va vazifalari haqida turlicha talqinlar tarqatilmoqda. Aslida ShHTning ustuvor maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

Maqolada shular haqida fikr yuritamiz.

Ruhshunoslar inson juda ko'p hollarda faqat o'zi xohlagan narsani ko'rishini isbotlashgan. Voqe va hodisalarini ongli tushunishimidan tashqarida bo'lgan ongosti hodisasi atrofimizdag'i reallikni asilcha emas, balki o'zimiz uchun kerakli va quylar tarza qabul qilishga majburlaydi.

Deyl Karneining "Bezovaltalikdan qanday qutulib yashash mumkin?" kitobida keltirilgan misrada aytiganidek:

"Garchi bitta derazadan qarar, Birov balchiq, birov yulduzni ko'rar".

Shu kunlarda Shanxay hamkorlik tashkilotining yurtimizda bo'lib o'tadigan sammiti ko'pchilikning diqqat-e'tiborida bo'lib turidbi. Ko'hna va hamisha navqiron Samarqand a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisiga mezonliq qilish. Ushbu tadbir ShHT yetakchilarining 2019-yildan buyon birinchi yuzma-yuz uchrashuv bo'ldi va O'zbekistonning tashkilotdagi raisligiga yakun yasaydi.

Shu munosabat bilan ko'plab xoniji omraviy axborot vositalari da ShHTning O'zbekiston raisligida o'tgan so'nggi bir yil mobaynida erishilgan ijobji natijalar va, umuman, ushbu tashkilotning keyingi rivojanish istiqbollari haqida qator maqlalar el'on qilinmoqda. Bunday tahlillarda mamlakatimizning ShHTga

raisligi yurtimizda keyingi olti yilda amalga oshirib kelinayotgan faol va ochiq tashqi siyosatning mantiqiy davomi bo'lgani, asosiy e'tibor savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, transport-kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantrish, kambag'allikni qisqartirish kabi ustuvor yo'naliishlariga qaratilgani e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ShHTga raisligi davrida 80 dan ortiq yirik tadbirlar amalga oshirilgan Jumladan, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslami amalga oshirish maqsadida 14 ta yangi konseptual hujjat loyihasi ishlab chiqilgan. ShHT doirasidagi hamkorlik sohalari mazmunan boyitish va institusional kengaytirishga qaratilgan bu hujjatlar qatorida transport bog'lilqigini rivojlantrish bo'yicha ShHT strategiyasi, Mintaqalar sardoni rivojlantrish rejasи, Infratuzilmani rivojlantrish dasturi, "ShHT Ezgu niyat elchisi" institutini tashkil etish kabi loyihalarni alohida ta'kidlash zarur.

Aksariyat tahlilchilarining fikrlariiga ko'ra, O'zbekiston ilgari surgan tashabbuslar faqat bunyodkorlik va hamkorlik ruhidagi bo'lib, barcha tomonlarning manfaatlariiga to'la javob beradi hamda ularni hayotga tabbiq qilish mexanizmlari puxta ishlab chiqilgan. Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan davlat rahbarlari kengashining yig'ilishida ham tashkilot doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan hujjatlar to'plami imzolanishi kutilmoxqda.

Lekin ayrim tahlilchilar Shanxay hamkorlik tashkilotini g'arb davlatlari va NATOGa qarshi turadigan kuch sifatida talqin qilishga harakat qilmoqda va bu holat hozirgi go'yoki "bir qutb"li bo'lgan dunyoning "ko'p qutb"-liga aylanishiga olib keladi, deyishmoqda.

Masalan, yirik bir axborot agentligi tomonidan publisist deb ko'satilgan KDvinskij ShHT istiqbollarini quyidagicha ko'radi: "Bugun G'arb bosimi ostida bolgan davlatlar atlantik tuzilmalarga qarshi zarba berish uchun yagona iqtisodiy makon va harbiy blokka birlashishlari kerak. Buning eng ma'qul yo'lli - ShHT doirasida birlashishdir". Bu targ'ibotchining ta'kidlashicha, Amerikadan boshqariladigan oldingi dunyo parchalaniши aniq bo'lib, uning ormini Yevrosoyi makonidagi eng qudratli tuzilma bo'lgan ShHT egallar ekan.

"ShHT nafaqat Shimoliy atlantika shartnomasi tashkiloti - NATOGa, balki g'arb davlatlari qarashiga asoslangan dunyo tariqlariga ham daaili qarshi bormoqda", - deydi Rossiya Xalqaro munosabatlarda kengashi direktori AKortunov.

Hatto ayrim rasmiyalar ham ShHT "g'arb tomonidan tizqishirilayotgan bir qutbi dunyo tariqlariga qarshi turishga qodir bo'lgan kam sonli tashkilotlarni bir" deyishgacha bormoqda.

Shu ma'noda Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Chjan

Min ShHTga a'zo davlatlar rahbarlarining Samarqanda bo'lib o'tadigan uchrashuv olib didan tashkilot doirasida turli bloklarga qo'shilmaslik, har qanday uchinchi tomonaga qarshi harakat qilmaslik tamoyillariga qat'iy roya qilinishi lozimligini eslatib o'tgani bejiz emas.

Aslida ham tashkilotning asosiy dasturi hisoblanuvchi "Shanxay hamkorlik tashkiloti xartiyasi" - ishtirokchi davlatlarning BMT nizomi maqsad va tamoyillariga, xalqaro huquqning xalqaro tinchlik, xavfsizlik va davlatlar o'tasida do'stona munosabatlarni rivojlantrishga qaratilgan umume'tirof etilgan me'yorlariga sodiqligi alogida ta'kidlab o'tilgan.

Ushbu hujjatda, shuningdek, tashkilotning maqsad va vazifalari, faoliyatining asosiy tamoyillari

ochiq-oydin ifodalangan. Ishtirokchi davlatlar o'tasida o'zaro ishonch, do'stilik va yaxshi qo'shnichilikka asoslangan hamkorlikni rivojlantrish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, terrorizm, separatisizm va ekstremizmning turli ko'rinishlari, jinoymatchilikka qarshi birlasidandir.

Shanxay hamkorlik tashkiloti xartiyasida davlatlarning mustaqilligi, hududiy xaxlitligi va chegaralar daiksizligi, boshqa davlatlarning ichki ishlarga aralashmaslik, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish singari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari o'z aksini topgan.

Hujjatda ShHTning boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlarga qarshi qaratilmagan tamoyili ta'kidlangan.

Shanxay hamkorlik tashkiloti ulkan salohiyatga ega bo'lgan hamda xalqaro maydonda nufuzi ortib borayotgan tuzilma sifatida o'z faoliyatini turli tahlilchilarining istak va talqinlari emas, balki o'zining huquqiy poydevori bo'lgan ta'sis hujjatlarida belgilangan tamoyillar asosida olib boradi.

Ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'naliishlari yuzasida munosabati har doim ochiq-oydin ifodalanimib kelgan. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining o'tgan yil 18-sentabrda Dushanbeda bo'lib o'tgan yig'ilishidagi ma'rurasida makzur tashkilotning uchinchi davlatlar va boshqa xalqaro tashkilotlarga qarshi qaratilmaslik tamoyiliga amal qilish, mintaqaviy aloqalarni kuchaytirish, do'stilik, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro ishonch muhitini mustahkamlash singari vazifalar ustuvorligini saqlash zarurligini ta'kidlagan edi.

O'zbekiston ushbu tashkilotning bloklarga qo'shilmaslik maqomi va uning faoliyatini barqaror rivojanish maqsadlariga qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Anvar EMINOV,

Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti xodimi

O'ZA



10 MING TALABA

YOTOQXONA BILAN TA'MINLANSASI,
O'QISHGA QAYSI JAMOAT TRANSPORTIDA QATNAYDI?



Poytaxtda talabalarni turar joy bilan ta'minlash maqsadida Yangihayot tumanidagi "Tashkent Index" savdo-ishlab chiqarish majmuasi huddida bo'sh turgan **10 ming o'rini bino talabalar yotoqxonasiga aylantirilmoqda**. Shahar hokimi o'rinsbosari Durdona Rahimovaning aytishicha, talabalar yotoqxonadan tashqari, dars qilish uchun o'quv xonalari, oshxonalar va 1,5 kilometr uzog'liddagi metro bekatigacha bepul avtobuslarda borib kelish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ayni paytdagi dolzarb masalaga yechim topish, albatta, yaxshi. Ammo buning ortidan boshqa bir muammoning kelib chiqishi o'riqlidir. 10 ming talaba bir paytda darsga borish kerak, tabiiyki, ular uchun eng qulay transport vositasi metro. So'nggi yillarda poytaxt aholisi nafaqat ishma borish va qaytish vaqtida, balki kunning boshqa paytlarida ham tirbandlik, jamoat transportining sifatsiz xizmati, behuda vaqt sarfi kabi bir qator muammolarga duch kelmoqsha. Shundaoq ham Sergeli tumani yo'llaridagi tirbandlik favqulodda vaziyat emas, balki kunda odamlarni qiyaynaydigan muammo. Oyoq qo'yishga joy topib bo'lmaydigan jamoat transportlari yana 10 ming talabaga qanday xizmat ko'sata oladi?

Bu masala yuzasidan jiddiyroq bosh qotirish kerak, negaki shaxsiy avtomobilalar va yo'lovchi-

lar soni tobora ortib borayotgani bois transport masalasi Tashkent shahrining eng og'riqli muammolaridan biriga aylandi. So'nggi 10 yilda poytaxtda avtomobillar soni ikki baravardan zi-yodroqqa oshgan, boz ustiga jamoat transporti yo'nalish tarmoqlari o'tgan asrning 80-yillarda tuzilgani, ammo shu vaqtga qadar mukammal tarzda qayta ko'rib chiqilmagani, oqibatda shahar jamoat transporti tizimida jiddiy muammo lar yig'ilib qolgani vaziyatni tobora murakkab lashtirmoqda.

Ayni paytda Tashkent shahrida avtobuslar bo'yicha **140 ta**, yo'nalishli taksilar bo'yicha **67 ta**, metropolitenda **4 ta** yo'nalish mavjud. Avtobuslarda kuniga o'ttacha **400 ming**, metropolitenda **380-400 ming** kishi manziliga yetkaziladi. Poytaxtga kunlik kirib-chiqishlarni inobatga olsak, jamoat transportini rivojlantirish naqdor muhim ekanligini anglash qiyin emas. Yo'llarda mashinalar qancha ko'p bo'lsa, bu shunchalik tirbandlikni keltirib chiqaradi. Yo'llar tirbandligidagi asosiy ulushni shaxsий transport vositalari tashkil qilar ekan, buning

oldini olish yo'llaridan biri – jamoat transportini ko'paytirish. Ammo poytaxtda aholining kamida 90 foizi harakatlanadigan jamoat transportlari ga e'tibor berilmayapti.

2016-yil 2-may kuni Markaziy Osiyodagi eng qadimiy va eng yirik yengil reaksi yo'l tizimi – Toshkent tramvayı tarixiga kirdi. Rasmiyalar buni avtotransportlar sonining doimiy ko'payishi va tramvay yo'nalishlarining samarasiz ishlashi bilan izohlashdi. Ko'p sonli avtomobillar uchun yollarini yanada kengaytirishni xohlaganlari uchungina 115 yillik tarixga ega butun boshli jamoat transporti tizimi buzib tashlanishini nima deb izohlash mumkin?

Dunyoning boshqa davlatlarda shaharlar yengil temir yo'l transporti (LRT) qurishga va shaharlarga tramvay olib kelishga harakat qilayotgan bir paytda eng ekologik toza va eng tejamkor transport turini nobud qilish va uni Toshkent ko'chalaridan olib tashlash tarix kitoblarimizga eng katta xatolarimizdan biri sifatida kirgan bo'lsa ajab emas.

Afsuski, uzoq yillar davomida ko'chalarda avtomobillar sonining ortishi va tirbandliklar muammosini bartaraft etish chorasi sifatida hukumat va shahar hokimligi mutasabdilari ko'proq yo'llar qurish va ularning o'tkazish imkoniyatini oshirish haqida o'yalamoqda. Ammo yo'l o'tkazuvchanligini oshirish uchun kengroq yo'llar qurish samarali yechim emasligi ham-mamizga ma'lum.



BARCHA YO'LLAR "PROBKA"GA OLIB BORADI

Ertaga soat 10 da majlis bor, vaqtiroq uqlash kerak. Axir Yangiyo'l tumanining bir chekkasidan poytaxtning qoq yuragiqa "shest sekund"da yetib borib bo'larmidi?

Ertalab 06:00 da uyg'onib, supur-sidir qilib, choy ichib, soatga qarasam – 7:40. Yo'lg'a chiqdim. Metrogacha taksida boraman, "Olma'zor" metro bekatigacha 5 ming so'mga olib borib qo'yishadi. Omadim kelib, sovtukchi bor, oynasi qoraytirilgan mashinaga chiqib qolibman. Yashavor, yigirma minutlik yo'lda bemalol uqlab olsa bo'ladi, oftob qizdirmaydi – biznes

klass. "Naushnik"ni qulogqa ilib, chamasi 15 daqiqa o'tgach ko'zimni ochsam, hali shaharga kirish tugul, "Bo'zsuv" ko'prigiga ham yetmabmiz. Yo'l tirband, haydovchi telefonida kino ko'rib o'tiribdi...

Endi nima bo'ladi? Majlisga vaqtida bormaganim uchun kamida dakkii eshitaman yoki "hayfsan" berishadi. Keyin bu oyligimga ta'sir qiladi. Oyilgim kamaygach, IELTSga borolmayman, IELTS ololmaganim uchun magistraturaga kirolmayman, magistraturaga kirolmasam... Yo'q, unda qishloqqa erga berib yuborishadi, unaqada jurnalistikani tashlashimga to'g'ri keladi...

Shunday xavotir bilan ikki yarim soat deganda tirbandlikdan chiqdiq. 20 daqiqlik yo'lni ikki yarim soatda bosib o'taik! Soat 10, majlis boshlangan bo'lsa kerak. Mening kovushimni to'g'rilab qo'yish haqida ham topshirish bo'lgandir. Metroga tushib, ishma borgunimcha soat 12 bo'lay debdi. Qisinib, qimtinib ishma kirmsam, hamma o'z xonasida xotirjam ishab o'tiridi. Majlis bo'ldimi, desam: yo'q. – deyishdi, – rahbarimiz "probka"da qolib ketibdi...

Ha, hazilomuz aytigan bu voqeja ko'pchilikning boshidan o'tgan.

ISHNING KO'ZINI BILADIGAN YETAKCHI

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbir

Mahalladagi yetakchilarning faoliyati bilan tanishar ekanmiz, ular yoshlar bandligini ta'minlash bilan birga, hududdagi muammolarini ham hal etayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Bugungi qahramonimiz bir yoshni ham daromadli qilib, ham shu yo'l bilan mahalla ahlining uzog'ini yaqinlashtirib, ko'pchilikning duosini oldi.

Gap shundaki, Kasbi tumanidagi "Yuksalish" mahallasi tarkibiga 4 ta bir-biridan 2-3 kilometr uzoqlidagi joylashgan kichik qishloqlar kiradi. Mahalladagi yagona bog'cha esa ko'pchilik aholi uchun uzoqligi qilar edi. Mahalla yetakchisi taklifi bilan eng chekka hududda yana bir bog'cha ish boshladi.

- Mahallamiz tarkibidagi qishloqlar bir-biridan uzoqda joylashgani bois bolalar ham bog'chaga kelib

o'rtogi va yana 5 nafar yosh doimiy ish o'rniiga ega bo'ldi.

Mahalla yetakchisi avvaldan parrandachilik, baliqchilik bilan shug'ullanib kelganidan mahalladagi ishsiz yoshlarga ham parrandachilik va baliqchilik bilan shug'ullanib ko'rishni taklif qilmoqda. Bu borada yetakchi har bir yangi ish boshlagan yoshlarga shaxsan o'zi maslahat bermoqda. Aytishicha, buning uchun katta xarajat talab etilmaydi.

- Baliqchi tadbirdorlar bilan mahalladagi ishsiz yoshlarga trening o'tkazib, soha sirlarini orgatdik, -



ketishga qiyinalardi, - deydi Kasbi tumanidagi "Yuksalish" mahallasi yoshlar yetakchisi Diyorjon Atavullayev. - Shuning uchun yonimga ish so'rab kelgan Azamat Bobojonovga o'z uyidan xususiy bog'cha ochish taklifini berdim. Birga reja tuzib, o'ziga tegishli bo'sh turgan obyektni bog'chaga aylantirishga qaror qildik. Uni jihozlash uchun 33 million so'm imtioyozli kredit ajratildi. Hozir 50 o'rinni bog'chada Azamatning o'zi, turmush



deydi yoshlar yetakchisi Diyorjon Atavullayev. - Ko'pchilik joy muammo bo'ladi yoki ko'p xarajat qilinadi deb o'yaydi. Lekin oson yechimini

**Diyorjon
ATAVULLAYEV,**
"Yuksalish" mahallasi
yoshlar yetakchisi



topganman. Buning uchun issiqxona qurish kerak. Issiqxona uchun 5 million so'm xarajat ketadi. Hovuz uchun 1,5 million so'm mablag' yetarli. 1 million so'mga baliq lichinkasini, 1 million so'mlik ozuqa olsak, jami 8,5 million so'm bo'ladi. Biz 8,5 million so'm kredit ajratsak, 5 kun ichida baliqchi tadbirdorlar ish boshlashi mumkin. Ayni paytda mahallamizda 20 nafarga yaqin yoshlar o'z xonadonida baliqchilik bilan shug'ullanaydi. Ularning har biri oyiga 3-4 million so'm sof foyda ko'rimoqda. Mahalla da juda qiyin ahvolda yashayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga ta'minotchi bilan gaplashib, qisqa fursatda baliqxonada tashkil etib berdi.

Parrandachilikdan ham yaxshigi-

na daromad olish mumkin. Mahallamizda 10 nafardan ziyod yoshlar parrandachilik bilan shug'ullanib, oyiga o'rtacha 5 million so'mdan daromad qilyapti. Yana 30 nafardan ortiq yoshlar o'z xonadonida issiqxona qurib, dehqonchilikdan daromad olmoqda.

Mahalla yetakchisi yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda "5 tashabbus olimpiadasi"ni eng yaxshi yechim deb biladi. Shu boisdan olimpiadaning har bir turiga mahalla yoshlarining qatnashishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Olimpiadaning ikkinchi mavsumiga tayyorgarlik ko'rayotgan mahalla yoshlari birinchini mavsumda ham munosib ishtiroy etib, yaxshi natijalarga erishgan edi. Jumladan, Obod ko'chasiining yoshlari "Zukko kitobxon" tanlovida sektor, tuman, viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lg'a kiritib, 2 million so'mdan, jami 12 million so'm pul mukofoti olishdi. Bu gal ular respublikada g'olib bo'lish natiyatida.

Yoshlar daftari

G'UZORLIK YETAKCHILAR BUXORODA



G'uzor tumanidagi 51 ta mahalla yoshlar yetakchilarning Buxoro viloyatiga sayohati tashkil etildi.

Yoshlar yetakchilari tuman hokimi o'rinbosari A.Jovliyev va Yoshlar ishlari agentligi G'uzor tuman bo'limi xodimlari hamrohligida Bahouddin Naqshbandiy maqbarasi va boshqa muqaddas qadamjolarni ziyyarat qildi.

DEHQONCHILIKNI TANLADIM



Akmaljon AMINJONOV,
Samarqand tumanidagi
"Qo'shmasjid" mahallasi fuqarosi

Yoshim 20 da. Oilmizda biroz qiyinchilik bo'lgani uchun mahallamiz yetakchisi Obidjon Nurillayevdan yordam so'rab chiqdim. U menha har xil ishlarni taklif qildi. Bobom ham, otam ham dehqonchilik bilan shug'ullangani, mening ham yoshligimdan bu sohada tushuncham borligi sabab dehqonchilikni tanladim.

Yetakchimiz shu kuni meni "Yoshlar daftari"-ga ro'yxatga oldi. Men esa auksion orqali 20 soxtix yerni 10 yil muddatga foydalananishga oldim. Bu yerga bo'dring ekdim, shu kunlarda hosilini yig'ib, sotmoqchi bo'lib turibman. Yaqinda uymizda to'y bo'ldi. Niyatim shu to'yga o'z hissamni qo'shib, ota-onamga yordam qilish.

Mening atrofimdagagi barcha dehqonlar mahallamiz yoshlari. Ular ham mendek yer olib, loviya, mosh, jo'xori kabi ekinlar ekib, hosilini yig'ish arafasida.

SHAXSIY NAMUNA VA DA'VAT

OLIMPIADAGA O'ZGACHA RUH BERMOQDA

Hududiarda "Besh tashabbus olimpiadasi"ning ikkinchi mavsumida qatnashish istagini bildirgan yoshlar bahslarga kirishdi. Dastlabki kungi bahslardan ko'rinish turibdiki, musobaqada ishtirok etmoqchi bo'lganlar ilk mavsumdagidan sezilarli darajada ko'p.

Olimpiadaning ilk kunida **stol tennisini** bahslari boshlandi. Bahslarni turli joylarda stol tennisini ustalarli ochib berishdi. Taniqli sportchilar yoshlarga omad tiladi. Stol tennis ustalariga havas qilgan yoshlar ulardan motivatsiya oldi.

Shaxmat-shashka musobaqlari ikkinchi turdan o'rın olgan bo'lib, bahslar qizg'in tarzda boshlandi. Avvalgi mavsumdan farqli ravishda bu mavsumda oldindan yaqqol favoritini taxmin qilish imkonisz. Hamma birdeki tayyorlangan. Hatto professional murabbiylarni jalg etgan mahallalarga ham guvoh bo'dik. Ta'kidlash joizki, bu yil shaxmatchilarimizning yuqori ko'satikchilari sabab shaxmat musobaqlarida ishtirok etayotganlar ko'pchilikni tashkil etmoqda.

"Besh tashabbus olimpiadasi" birinchi mavsumida g'oliblikni qo'nga kiritgan ishtirokchilar ikkinchi mavsumda o'z shogirdlari bilan qatnashayotganiga guvoh bo'yapmiz. Xususan, birinchi mavsumda shashka sport turi bo'yicha g'oliblikni qo'nga kiritgan andijonlik Ahrorbek Mamatusunov shashka musobaqlarida o'z mahallasidan 20 kishilik jamaa shakllantirgan va



Foto Anvar TO'YCHIYEV

o'zi boshchiligidagi musobaqlarda dona surmoqda. Bu ham olimpiada qamrovi kengaygani hamda qiziqishning ortganidan dalolatdir.

Bundan tashqari, yangi mavsumda musobaqa tashkilotchi va mas'ullari ham yoshlarga o'rnak bo'lishi istagida joylarga borib, yoshlar bilan o'ynirlarda ishtirok etmoqda. Jumladan, Yoshlar ishlari agentligi Besh tashabbus loyihalarni muvoqilaqtirish boshqarmasi boshlig'i Indira Xoldarova ham ishtirokchilarga shaxsiy namuna ko'satib, Guliston shahrida yoshlar bilan birga stol tennisida bellashdi.

— "Besh tashabbus olimpiadasi" muhitni meni o'ziga tortdi, — deydi Indira Xoldarova. — Yoshlarining ishtyoqini ko'rib, o'zim ham qanday qilib bahslarga kirishib ketganimni sezmay qoldim. Ishtirokchilarning mahorati, qiziqishi menda katta taassurot qoldirdi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" endi boshlandi. Oldinda bizni katta voqe'a va hodisalar kutub tu-

ribdi. Olimpiadaning ikkinchi mavsumi ham cheksiz his-hayajon va g'alaba nashidasini tuhfa etishiga ishonamiz. Birgalikda kuzatamiz!

Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbir

Komila HAMROYEVA, O'ZMU talabasi

SARDORLAR SAYLOVI: MUNOSIBLAR SARALANDI!



Har o'quv yilining sentabr oyi davomida an'anaviy tarzda "Tengoshga tengosh" tamoyili assosida faol bo'lmagan yoshlar bilan tizimli ishlar tashkil etish, ularda notiqil mahoratini takomillashtirish hamda "Kamalak" bolalar tashkiloti a'zolari safini kengaytirish maqsadida Sardorlar saylovi o'tkazib kelinadi.

Joriy yilning 7-10-sentabr kunlari respublikamizning barcha umumta'lum maktablarida "Kamalak" va Yoshlar ittifoqisi sardorlarini saylash jarayonlari bo'lib o'tdi. Xususan, Toshkent shahrinining 145, 223, 227, 114, 112 va 123-umumta'lum maktablarida sind sardorlar saylovin shaffof o'tkazish maqsadida namundali sind sardorlarini saylovi hamda yoshlar bilan ochiq muloqot tashkil etildi. Muloqot davomida yoshlarning taklif va g'oyalari tinglandi, e'tibordan chetda qolayotgan loyihalarni amalga osdirishsha kelishildi hamda yoshlar sardorlik faoliyatida duch kelayotgan muammolami tizimli hal etish masalasi ko'rib chiqildi.

— Boshlang'ich tashkilotlarda har tomonlalama faol, o'z fikri va qat'iy fuqarolik pozitsiyasiga ega, tashabbuskor va fidoyi yoshlar ko'p. Ulami kashf etish, taklif va g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, duch kelayotgan muammolarni bartaraf etish hamda ular bilan doimiy ochiq muloqot qilish oldimizda turgan eng ustuvor vazifaga aylanishi kerak, — deydi Toshkent shahar "Kamalak" bolalar tashkiloti koordinatori Azizbek Ochilboyev.

Sardorlik ulkan mas'uliyat bilan birga, o'ziga xos majburiyat ham yuklaydi. Sardor o'zulqi, bilimi, kiyinish va muomala madaniyatini bilan boshqa yoshlarga o'rnak bo'lishi zarur.

"INKLYUZIV O'ZBEKISTON"



Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan joriy yilning sentabr oyida yurtimizning tarixiy va diqqatga sazovor go'shalari — Samarcand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari bo'yab nogaorigligi bo'lgan yoshlar uchun "Inklyuziv O'zbekiston" sayohati tashkil etilmoqda.

Loyiha doirasida Buxoro va Navoiy viloyatidagi 100 nafar nogiron yoshlar uchun ilk sayohat ochiq osmon ostidagi muzeysi — qadimiy Xiva shahriga bo'ldi. Ular shaharning diqqatga sazovor joylarini aylandi. Xivaning qadimiy binolari, sayyoqlikni rivojlantirish uchun qilinayotgan ishlar haqida ma'lumatlar berildi. Jami 213 ta ustunga tayaniib turgan tarixiy obida — Juma masjidini ham ishtirokchilarda katta qiziqish urg'otdi.

Mashhura NASRIDDINNOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbir

“OTASINING ERKASI” BO‘LISHNI ISTAMAGAN YIGIT



2022/2023

o‘quv yili ham boshlandi. Kimdir orzusidagi ta‘lim muassasasiga kirib, talaba bo‘ldi, kimlarningdir rejalarini yana bir yil ortga surildi. Shahrizim ko‘chalari esa ko‘zi chaqnab turgan birinchi bosqich talabalariga to‘ldi. Ayrim yoshlardan o‘z yurtimizda talabalik baxtinga erishgan bo‘lsa, chet edlagi olyi ta‘lim muassasalariga qabul qilingan bilimdonlarimiz ham talaygina.

Shahribonu RAHMATOVA
suningtasiishi

Universitetda o‘z yo‘nalishim uchun kerak bo‘lgan darslarni tanlab oлганман. Kutubxonada barcha kitoblar bor, u yerda talabalar yotib qolib bo‘lsa ham kitob o‘qishadi. Har bir talaba uchun internet va boshqa zarur texnologiyalar mavjud. Masalan, menga kutubxona tomonidan elektron kitob o‘qishim uchun aypad ajratilgan. Universitet hududida nima bo‘lsa barchasi tekin, faqat ID-karta yonimizda bo‘lishi kerak. Darslarim soat 11:00 da tugaydi. So‘ng sport zaliga boraman, u yerda devor va qoyaga tirmashish, ya‘ni alpinistikni o‘rganaman. IstaSAM tennis xonasiga kiraman, keyin suv saroyiga boraman.

– Kelajakdag‘i rejalarining qanday?

– O‘zbekistonga qaytgach o‘z soham, ya‘ni firmalarning hisob-kitoblari, buxgalteriya, soliqlar bilan ishlash, firma analizi va narxlash, hisob-kitobga oid barcha ishlarni bajaraman. Buning uchun menda xonij diplomi va tajribasi bo‘ladi.

Rejalarimdan biri “Price Waterhouse Coopers”da ishlab, malaka oshirish.

– Sizningcha, yoshlardan nega xorijda o‘qishga qiziqadi?

– Birinchi bo‘lib, xalqaro standartlarda sifatlari ta‘lim olish, do‘st-tanishlari orttirish istagi bo‘ladi. Masalan, men o‘lam tomonidan yaratilgan komfort zonadan chiqish uchun, ya‘ni “otasining erkasi” bo‘lishni istamaganim sabab chet elda o‘qishni tanlagman. Xalqimizda “musofir bo‘lmaguncha musulmon bol’maysan”, degan naql bor-ku.

Tengdoshlarimning ketishiga sabab ham shunga o‘xshash deb o‘layman. Ular ham sifatli ta‘lim, xalqaro bilim egalari bo‘lishni xohlashadi. Maktabni tugatayotgan o‘quvchilariga hozirdan chet el testlariga tayyorlanishlarini, ingliz tilini nafaqat bishilash, uni har kuni ishlatishtilarini maslahat bergen bo‘lardim.

Gazeta faoliyatiga va barcha tengdoshlarimga omad tilayman. Orzu qiling va maqsadlariningizni amalga oshiring!

TEST TOPSHIRDIM VA 1600
BALLIK SHKALADAN 1400 BALL
OLDIM.

Saidkamolxo‘ja Anvarxo‘jayev ham G‘arbiy Florida universitetining buxgalteriya hisobi yo‘nalishida o‘qishni boshlaganiga bir oy bo‘ldi. Yurtimizdagi ta‘lim tizimi va talabalar hayoti bar-chamizga ma‘lum. Chet elda, asosan AQShda tahsil olish va yashash ko‘pchilik yoshlarning orzu si. Keling, bugun Saidkamolxo‘ja bilan suhbatiimiz orqali u yerdag‘i hayot haqidagi bilib olamiz.

– O‘qishga kirishingiz va imtihonlar qanday bo‘lgan?

– Universitetga uning veb-sayti orqali hujjat topshirganman. Raqamlar bilan yaxshi ishlay oлганman uchun shu yo‘nalishni tanladim. Biznesdagi xatolarini topishga qiziqqanim ham bunga sabab bo‘ldi. O‘qishga kirish jarayonida eng kerakli bo‘ladigan imtihonlardan biri – SAT. Ushbu test o‘quvchining kritik fikrashi, o‘qib tushunishi va matematik bilimlarini sinaydi. Shu testni topshirdim va 1600 ballik shkaladan 1400 ball oldim. Insha ham yozdim. 50 ta shattdan aynan Floridan tanlashimdan maqsad – bu yer issiq va yashash uchun qulay.

– **Bizda kontrakt va talabalar turar joyi bilan bog‘liq muammo ko‘p uchraydi. U yerda bu tizim qanday?**

– Bu yerda bir yillik kontrakt 15 ming AQSh dollari. Lekin imtihonda yuqori ball to‘plaganim uchun 600 dollar to‘ladim. Yotaoqxonalar esa juda quay, xuddi bir xonali uydek, ikki kishi yashaydi. Har bir xona uchun alohida oshxona bor. Uning to‘lovi ham oyiga 600 dollar.

– **Ta‘lim tizimi-chi?**

– AQShda ta‘lim juda sifatlari, barcha sharoitlar talabalarining katta yutuqlarga erishishi uchun yaratilgan. Florida universitetlarining farqi shundaki, bo‘lajak talabalar dunyoning qay burchagidagi maktabni tamomlaganiga qaramasdan SATsiz o‘qishga kira olmaydi. Hech kim sizga dars qilish kerakligi haqidagi aytymadi, o‘zingiz anglashingiz va vazifalarni vaqtida topshirishingiz kerak. O‘qituvchi 1 soat dars o‘tadi, darsni tushunmay qolsangiz, magistrlar yordam beradi.

SARVINOZ 10 TA TIL O‘RGANDI

Sarvinoz SAYDULLAYEVA:

Sardor SA‘DULLAYEV to‘yontadi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab, ijod qilgan o‘zbekning ma‘rifatparvar shoiri Avaz O‘tar shunday yozadi:

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,

Til vositayi robitayi olamiyondur.

Til bilish har qanday zamonda ham muhim hisoblanib, u doimo boshqa xalqlar bilan yaqinlashish, ular bilan samaroldi aloqalarini tashkil etish uchun ko‘prik vazifasini bajarqan. Buni yaxshi anglagan bugungi yoshlarningiz 2-3 ta tilni o‘rganishmoqda. **Poliqlot qahramonimiz Sarvinoz Saydullayeva 10 ta – rus, ingliz, fransuz, nemis, coreys, arab, ispan, turk, xitoy, italyan tillarida so‘zlasha oladi.** U 23 yoshda bo‘lishiga qaramay, til o‘rganish va o‘rgatish bo‘yicha katta tajribaga ega.

Xo‘sh, u bunday muvaffaqiyatga qanday erishdi?

– Bolaligimdan dutor chalib qo‘shti aytar edim. Keyin qiziqishlarim o‘zgarib, til o‘rganish sevimi mashg‘ulotimga aylandi. Biroq hech qachon o‘qituvchi bo‘laman deb o‘ylaman deb. Hozir esa Toshkent shahrida joylashgan o‘sim tashkil qilgan “Sarvarovna til maktabi” o‘quv markazida 10 nafar dan ortiq o‘qituvchilar bilan birga yoshlarga ta‘lim berib kelyapmiz.

Menga “shuncha tilni qanday o‘rganyapsiz, qiyin emasmi?” kabi savollarni ko‘p berishadi. Agar xorijiy tillarni o‘rganishni chin dildan xohlasangiz, bu juda ham oson. Bugungi kunda nafaqat chet tili, balki boshqa bilimlarni ham uyda o‘tirib, ijtimoiy tarmoqlar orqali bermalol o‘rganish mumkin. Buning uchun bizga zamonaliv telefon va intermetning mavjudligi yetarli. Mening boshqa-

lardan ajralib turadigan alohida ji-hatim yo‘q. Agar siz poliglot bo‘lishga ahd qilib hozirdan harakatni boshlasangiz, ko‘zlagan maqsadningizga yetasiz. Buning uchun tinimsiz mehnat va harakat kerak, xolos.

Gohida ko‘cha-ko‘yda “3 o‘ya da IELTS dan 7+ olish” haqidagi reklamalarga ko‘zimiz tushadi. Tajribamidan kelib chiqib aytishim mumkinki, 3 oyda 0 darajadan 7+

darajaga erishish mumkin. O‘sim tuzib chiqqan dastur bo‘yicha ham ingliz tili grammatikasini 3 ta darsda o‘rganib chiqish imkoniy mavjud.

Bugun o‘z yo‘nalishim bo‘yicha ma‘lum darajada tajribaga ega bo‘ldim. Tajribalarim shuni ko‘rsatadiki, aslida hech kim xotirasiz past bo‘lmaydi yoki sekil qabul qilmaydi (agar miyasiyasida nuqsoni bo‘lmasa). Shunchaki, biz dangkasalik olamini tark etib, qo‘rquv qobig‘idan qutilishimiz kerak. Buning uchun esa maqsadlarimizni aniq qilib olishimiz, o‘zimizga ishonishimiz, yollarimizda uchragan tosiqlaridan mardonavor o‘ta olishimiz lozim.

Kelajakda faoliyatimni yanayamengaytirib, xususiy bog‘cha, maktab va universitet ochish niyatidaman va u yerda ta‘lim oladigan o‘quvchilar katta yutuqlarga erishishi uchun bor imkoniyatimni ishga solaman.



SIZ TALABA BO'LDINGIZ!

Ziyoda RAHIMBOYEVA
tayyorladi

Yillar davomida qilingan mehnat o'z natijasini ko'rsatdi – siz talaba bo'ldingiz! Quvonchtingizga sherikmiz. Ulkan maqsadlar bilan boshlangan hayotingizning yana bir sahifasi ochildi. Endilikda yel-kangizdagi mas'uliyat hissi yana bir karra oshadi, agarda buni his eta olsangiz!

Maqsadlari sari jiddiy bel bog'lagan tengdoshlarimizga yaxshi malumki, talabalik faqat chiroyli kiyinish, o'quv auditoriyalarida dars o'tish, har kuni oliy ta'lilmuassasasiga borib kelishdan iborat emas. Maqsadlaringiz sari yana bir qadam qolganini his etishning o'ziyoq sizni sergaklikka chorlashi aniq.

Quyida siz, aziz yosh talabalar uchun kichik yo'riqnomasi tayyorladik. Buni oliy ta'lilmuassasasini bitirgan yoki bitirish arafasida turgan o'ka-opalarigizdan bir tuhfa deb qabul qilsangiz ham boladi. Qoidalarni hamma yerda boladi, ularga amal qilish bilan birga o'z-o'zingizga taqiqlar qo'ymaslikni o'rorganishingiz kerak!

"Tajriba"lardan kelib chiqib tuzilgan bu kichik ro'yxatda siz qilishingiz kerak yoki, aksincha, kerak bo'limgan ishlarni keltirilgan.

AVVAL SALOM...

Sizdan eng kamida 15 yosh katta yoki onangiz tengi inson bo'lishi shart emas, tasodifan uchrashib qolgan da to'liq va yoqimli ovoz bilan salom berib, oilangizda olgan tarbiyagizni ko'rsatgan bo'lasiz. Siz bilan suhbatlashgan odamning kayfiyatni a'lo darajaga ko'tariladi. Sizdan bir necha yosh kichik kursdoshingizga chiroyli salom berishingiz ojizlik emas, balki olijanoblikning belgisidir!



MUHIM EMAS, LEKIN KERAK

Jahondagi shartnomalar puli qimmat, ta'lilmiz o'ta qat'iy qoidalarga asoslangan, ammo sifat jihatdan dunyoda nufuzli hisoblanadigan, har bir talabarning yuragidagi so'nmas orzu bo'lgan – Garvard, Stenford, Kembrij, Oksford kabi universitetlarda talabalarining darsda qanday kiyimda ishtirot etishlari 0 foiz ahamiyatga ega. Muhimi, kiyimning qaysi brendan ekani, uzun-kalta, keng-torligi emas, uni kiyib yurgan talabaning qanday ta'lilm olayotgani deb hisoblashadi. "Amerika ovozi" nashri jurnalisti Navbahor Imomova o'z lavhalaridan birida ta'kidlashicha, qimmat kontrakt, mustaqil hayat kechirishdagi

qiyinchiliklar sabab AQSh universitetlarda tahsil oluvchi talabalarining aksariyati o'zlarining eski yoki arzon kiyimlaridan uyalishmaydi.

Talaba o'zi uchun qulay, yengil kiyimda bolsagina, darslarni yaxshi o'zlashtiradi, o'zini erkin tuta oldi. Ammo bu chegaradan chiqish uchun sabab bo'lmasligi kerak. "Milliy mentalitet" tushunchasi o'z nomi bilan bizning kimligimizdan darak berib turadi. Oliy ta'lilmuassasasi siz uchun "podium" yoki yaqinlar davrasidagi shodiyonalar o'tadigan bayramona klub emasligini ham unutmang. Bu bilan universiteda kiyinish axloqiga rioya qilish kerakligini yana bir bor eslatishdan yiroqmiz, bu ko'nikma sizda allaqachon, bog'cha tarbiyalanuvchisi ekanligingizdayoq shakllanib bo'lganiga aminmiz!

MUHIT VA ME'YOR

Donishmandlar "To'rtta ahmoq bilan do'stlashsang, sen beshinchisiga aylanasan!" deb bejiz ta'kidlashmagan. Atrofingizdagi muhitni atrofingizga yig'ilganlar belgilashga qodirilgini unutmang! Albatta, do'stlar davrasida vaqt o'tkazish, qiyin vaziyatda yordam qo'llini cho'zish, maslahat berish, quvonchli kunlarda shodligiga sherik bo'lish juda yaxshi. Ammo me'yorga amal qilish muhim. Sevimli do'stlaringizni kutubxonada dars qilishga yoki tabiat qo'ynda kitob mutolaa o'qishga taklif etish bilan o'zingizga ham, ularga ham yordam bergan bo'lasiz!

SAJ'

Nurmuhammad RAQIBBOYEV

Saj' (arabcha – qumri, bulbul, to'tilarning sayrashi) – badiiy so'z san'atlariidan biri, uni nasrdagi she'r deyish ham mumkin. Bir yoki bir necha gapdagisi ayrim so'zlar vaznida hamda raviyda mos bo'la. Masalan, "Jallodlar so'yib qo'ymasin, tez-roq borib kulidan **olinglar**, zindonga **solinglar**" ("Ravshan").

"Baxmal o'tovda chimildiq tutib, kuyov navkarları bilan kuyovni kirkizmoqchi **bo'lib**, bir necha xotinlar "kampir o'ldi" **bo'lib**, o'lganiga bir nima **olib**, "it irillar" degan rasmini **qilib**, bunda ham bir nima **berib**, har zamон salom **solib**, uydan ichkari **kirib**... kuyov navkarlargacha **to'ppi**, ro'mol, sarpoylar **berib**, kuyov navkarlar chiqib ketdi..." ("Alpomish")

Saj' o'zbek xalq ertaklari, doston va maqollarda ko'p uchraydi. Sajlangan matn ravon o'qiladi, ohangdorlik va kuchli emotsionallik tug'diradi, kishi xotirasida mustahkam saqlanib qoladi. Ushbu san'at ishlatalgan nasr – nasri musajja', nazm esa nazmi musajja' deb yuritiladi. Saj' tuzilishi jihatidan uch xil bo'la.

1. To'liq (mutavoziy) – bir yoki bir necha gapdagisi ayrim so'zlar vaznida hamda raviyda mos bo'la. Masalan, "Jallodlar so'yib qo'ymasin, tez-roq borib kulidan **olinglar**, zindonga **solinglar**" ("Ravshan").

2. Qofiyali (mutarraf) – bir yoki bir necha gapdagisi ayrim so'zlar vaznida hamda raviyda mos bo'lib, vaznda teng bo'lmaydi. "Zoti **bemadoro**, dimogi po'olda va ko'ngli **xoro**" ("Mahbub ul-qulub").

3. Vazndosh (mutavozin) – bir yoki bir necha gapdagisi ayrim so'zlar vaznida hamda raviyda mos bo'lmaydi. Masalan, "Avbosh va areol mu'sulmonlaridin alarg'a ne **maosh** va ne **hisol**" ("Mahbub ul-qulub").

Saj' shohlarning saroy yozishmalari, tarixiy, ilmий va badiiy nasrda ham qo'llanilgan. Mumtoz adabiyotda Navoiy, Bobur, Gulxany kabi so'z san'atkorlari bu badiiy san'attan unumli foydalangan. Navoiy o'zbek nasrida saj' san'atini eng yuqori cho'qqiga ko'tardi. Hamza, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek, Tog'ay Murod va boshqalar ijodida ham ushbu san'at namunalari bor.

PUL BIRLIGI

An'anaga muvofiq, "Bilarmidingiz?" loyihasining har sonida yangiliklarga boy, siz tanish, ammo u qadar ko'p ma'lumotga ega bo'limgan mavzular haqida batafsil, ishonchli va qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etib boryapmiz. Bu ma'lumotlar chegaralanmagan doirada – texnika, tibbiyat, san'at, mashina rusumi yoki me'morchiлик obidasi haqida bo'lishi ham mumkin. Loyihaning navbatdagi sonida aziz musthakylarning takliflaridan kelib chiqib pul birligi, ya'ni kupyuralarni tanladik.

Pul birligi – bu ma'lum bir mamlakatda qonun yo'li bilan joriy etilgan, mamlakat iqtisodiy tizimida katta rol o'yinovchi asosiy unsur bo'lgan hisob-kitob birligidir. Iqtisodchilarning ta'kidlashicha, pul o'z tabiatiga ko'ra 3 xil xususiyatga ega: hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim xardit vositasi, boylik timsoli, mehnatni qiymat shaklida o'chab beradigan vosita.

BIZDA SO'M, BOSHQALarda-CHI?

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan uch yil o'tib muomalaga kiritilgan milliy valyutamiz – so'm respublikaning barcha hududida yagona to'lov vositasi sifatida amal qiladi. 1994-yilda muomalaga kiritilgan 100 so'mgacha bo'lgan jami qog'oz pullar dastlab Germaniyaning "Giesecke & Devrient" firmasida chop etilgan. 1997-yili muomalaga kiritilgan 200 so'mlikdan boshlab keyingi barcha kupyurular Toshkentdagi "Davlat belgisi" DIChB dav-

lat korxonasida bosilmoqda. Milliy pul birligimizning o'ziga xos dizayiniga etibor bersangiz, asosan qadimiy naqshlar-u yurtimizdag'i osoritqalar tasviriga urg'u berilgan.

Bugun biz, yoshlar faqat muzeylar yoki oilaviy kolleksiyalarda ko'rishimiz mumkin bo'lgan "iste'fo"dagi kupyuralar: 1 so'mlikning orqa tarafida Toshkent shahridagi Alisher Navoiy nomidagi Davlat

Loyha mualifi: Ziyoda RAHIMBOYEVA



“

1994-YILDA MUOMALAGA
KIRITILGAN 100 SO'MGACHA
BO'LGAN JAMI QOG'ÖZ PULLAR
DASTLAB GERMANIYANING
“GIESECKE & DEVRIENT” FIRMASIDA
CHOP ETILGAN.



akademik katta teatri, 3 so'mlikda Buxorodagi Chashmayi Ayyub maqbarasi, 5 so'mlikda Ozbekiston milliy bog'ida Alisher Navoi sharafiga o'rnatilgan haykal va me'moriy kompozitsiya, 10 so'mlikda Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasi, 25 so'mlikda "Shoh Zinda" tarixiy-me'moriy ansambl, 50 so'mlikda Registon tarixiy-me'moriy ansambl hamda 100 so'mlikda Xalqlar do'stligi san'at saroyi tasvirlangan.

15-iyuldan muomalaga chiqarilgan banknota – 200 000 so'm bugungi kunda mamlakatimizdag'i eng yirik pul birligidir. Mazkur banknotning ajoyib dizayni Buyuk ipak yo'lli hamda Farg'onada vodisining qadimiy tarixiga bag'ishlangan.

Bugunga kelib dunyoda eng ko'p ishlataladigan pul birliklari ro'yxatida birinchi o'rinni 25 ta davlat foydalananidan yevro, 2-o'rinni AQSh dolları, 3-o'rinni G'arbii Afrika dolları band etmoqda. Chegaradosh Osiyo respublikalarida ham alohida pul birliklari mavjud: Qirg'izistonda som, Afg'onistonda afg'oni, Turkmanistonda manat,

Tajikistonda somoni va Qozog'istonda tengen. Viqr to'kib turgan qorli tog'lar qarshisidagi mag'rur qoplon tasviri tushirilgan 10 ming tengelik kupyura Qozog'istonda 2003-yildan buyon zarb qilinadi. Ushbu kupyura "The Telegraph" nashri tomonidan tuzib chiqilgan dunyoning o'ziga xos ko'rinishiga ega eng chiroyli pul birliklari 15 taligida birinchi o'ringa munosib topilgan.

Venesuela (pul birligi – bolivar) Eron (tuman), Veytnam (dong), Indoneziya (rupiy), Sierra (leone) kabi davlatlarning milliy valyutasi esa bugungi kundagi eng qadrsiz, ya'ni katta inflatsiyaga uchragan pul birligi hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: inflatsiya lotinchanadan olingan so'z bo'lib, "shishish", "bo'tish", "ko'tarilish" degan ma'nolarni anglatadi. Bu xalq tilida "pulning qadrsizlanishi"dir. Tovar va pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo'jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog'oz pullar miqdorining ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi mamlakatda inflatsiya yuz berayotganidan darak beradi. Inflatsiya nafaqat qolqo davlatlar, balki o'tish davridagi va hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham tez-tez kuzatilib turadi.

Navbatdagi sonlarda qaysi mavzudagi qiziqarli ma'lumotlarni bilib olishni istaysiz? Fikr-mulohaza, takliflaringizni @YO_tahririyati_bot manziliga yo'llashingiz mumkin.

**YOSHLAR
OVOZI**

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Muassis:
Ozbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
Ozbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor
SA'DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omraviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqamli bilan qayta ro'yxatda o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida fertidi va sahifani. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-78-95.

"Shax" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasida, A-3 formatida chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelsishilgan narxa. Buyurtma G-955, Adadi – 10525. Bosishha topshirish vaqt – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.



1 2 3 4 5 6